

SHAROF RASHIDOV- XALQIMIZNING OTASHQALB FARZANDI

Aralov Jahongir Ne'matulla o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston SSR kompartiyasi birinchi kotibi, atoqli davlat arbobi, iste'dodli adib Sharof Rashidovning hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada Sharof Rashidovichning faoliyati davridagi o'ziga xos qiyin boshqaruv shakli, undagi xalqni og'ir ahvolga solib qo'yuvchi ma'muriy buyruqbozlik tizimlarining ayrimlari haqida hikoya qilindi.

Kalit so'zlar: Sharof Rashidov, Jizzax viloyati Mirzacho'l, Qarshi, Jizzax cho'llari, „qo'shib yozish“ , „O'zbek ishi“, „Toshkent ruhi“, Toshkent metropoliteni, „Bo'rondan kuchli“, „Kashmir qo'shig'i“.

O'zbek xalqining sevimli farzandi, atoqli davlat arbobi, taniqli adib Sharof Rashidov 1917-yil 6-noyabrda Jizzax shahrida tug'ilgan. Jizzax pedagogika texnikumini bitirib, maktabda o'qituvchilik qila boshlaydi. Samarqand viloyati gazetasida kotib, muharrir bo'lib ishlaydi [[O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi](#)]. U Samarqand Davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga kiradi. 1941-yilda o'qishni tugatgan Sharof Rashidov Ikkinchi jahon urushiga safarbar qilinadi, biroq 1942-yilda og'ir yarador bo'lib qaytadi. Samarqand viloyat gazetasida muharrir, Samarqand viloyati qo'mitasining kotibi vazifalarida ishlaydi [www.uz.wikipedia.org. internet sayti].

Xalqimizning otashqalb farzandi Sharof Rashidov atoqli davlat va jamoat arbobi, iste'dodli adib sifatida Vatanimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan. Fashizmga qarshi Ikkinchi jahon urushida shaxsan qatnashib, urush haqida asarlar yozgan. Rashidov yozuvchi sifatida xalq e'tiborini qozondi. 1949—1950-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining raisi bo'lib ishladi. O'zining «Bo'rondan kuchli», «Qudratli to'lqin», «G'oliblar» romanlari bilan yozuvchilar qatoridan munosib o'rin oldi

[Q.Usmonov., M.Sodiqov 235-236 b.]. 1950-yillardan boshlab Sh. Rashidov faoliyatida yanada mas'uliyatli davr boshlandi. U 1950-yilda O'zbekiston Oliy Kengashi Rayosatining Raisi etib saylandi. Sh. Rashidov 1959-yildan e'tiboran to umrining oxirigacha respublikaning birinchi rahbari sifatida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasini boshqardi. U qariyb chorak asr davomida respublikaga yetakchilik qildi. Sh. Rashidov faoliyatiga nazar solar ekanmiz, avvalambor, o'sha davrning o'ta murakkabligini, ziddiyatliligini inobatga olish lozim bo'ladi.

Eng og'ir sharoitlarda ham Sh. Rashidov xalqiga farzandlik burchini ado etdi. Markazdan kelgan buyruqlarni yumshatishga, Markaziy hokimiyatdan yurt obodonligi, farovonligi uchun butun choralar bilan foydalanishga harakat etardi. O'zbekistonda 60—80-yillarda bunyod etilgan ko'plab sanoat korxonalarini, yirik inshootlar Sh. Rashidov nomi bilan bog'liqdir. Mirzacho'l, Qarshi, Jizzax, Yozyovon, Surxon—Sherobod cho'llarining o'zlashtirilishida uning xizmatlari katta. Kechagi cho'l-u biyobonlar bog'rog'larga aylantirildi, yuz minglab yurtdoshlarimiz u yerlarda o'zlarining rizq-ro'zlarini topdilar.

Sh. Rashidov rahbarligi davrida O'zbekistonda Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Yangiyer va Guliston kabi yirik shaharlar, o'nlab boshqa shahar va tumanlar barpo etildi. Sh. Rashidovning davlat va jamoat arbobi sifatida o'zbek xalqini dunyoga tanitishdagi xizmatlari beqiyosdir.

Jahonda «Toshkent ruhi» sifatida 1966-yilda vujudga kelgan mashhur tushuncha Sh. Rashidov nomi bilan bevosita bog'liqdir. Bu Toshkentda tuzilgan xalqaro harakatdir. Sh. Rashidov Osiyo va Afrika yozuvchilari hamkorligi harakatining, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari xalqaro kinofestivalining, Hindiston va Pokiston o'rtasida tinchlik sulhi imzolanishining tashabbuskoridir. U o'zbek nomini ulug'lash uchun uning eng yuksak fazilatlarini namoyon qilishga jonini fido etgan insondir. Shu tufayli ham bu hurmatli inson xalqimiz yuragidan munosib joy olgan va uning mehriga sazovor bo'lgan edi [Q.Usmonov., M.Sodiqov 236 b.].

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov Sharof Rashidov haqida quyidagi so'zlarni aytib o'tgan: «bu murakkab shaxs, bir tarafdin, milliy manfaatlarni o'ylashga, ikkinchi tarafdin, Markazdan kelgan, tub manfaatlarga zid buyruqlarni hayotga tatbiq etishga majbur bo'lganini unutmasligimiz zarur. Uning umri sandon bilan bolg'a o'rtasiga qo'yilgan edi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi» [Islom Karimov. 15 b.].

Sharof Rashidov davrida 1966-yilda Toshkentda zil-zila bo'lishi va undagi vayronagarchiliklarni bartaraf etish yo'lidagi harakatlari, Toshkent metropoliteni qurilishi ham aynan ushbu shaxs nomi bilan bog'liq holda, taqsiinga sazovordir. Toshkent metropolitenining dastlabki 9 bekati ishga tushishi 1977-yilda amalga oshirilgan.

Sovet davlatining so'nggi yillarida ruslar uchun Sharof Rashidov nomi [korrupsiya](#) va Sovet Ittifoqining ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruvining bosh timsoliga aylanib qoldi. [Leonid Brejnev](#) hukumati yillari O'zbekistonga [paxta](#) topshirishni oshirish haqidagi oxiri yo'q qarorlar kelib turardi. Bunga javoban o'zbek hukumati „qo'shib yozish“ ([Sovet Ittifoqida](#) raqamlarning sun'iy o'sishi oddiy hol edi) hisobiga har doim dala maydonlarining irrigatsiyasi va paxta hosili haqida oldingisidan kattaroq raqamlarni yozishardi. O'sha „qo'shib yozishlar“ 500 mingdan 1 mln. tonnagacha tashkil qilgan. Bu holat o'zbek boshqaruvchilariga markazdan qo'shimcha manbalar olish va Brejnev hokimiyatini sotib olishga imkon berardi.

Faqatgina Rashidovning o'limidan so'nggina, markaz o'ziga xos „o'zbek ishi“ degan uydirmani o'ylab topdi va O'zbekistonga [Telman Gdlyan](#) va [Nikolay Ivanov](#) boshliq tezkor prokurorlar guruhini yubordi. Buning natijasida O'zbekiston hukumatida olib borilgan tozalashdan O'zSSRning deyarli barcha rahbarli nishonga tushishdi. Gdlyanning fikricha, o'sha vaqtda butun Ittifoq korrupsiya to'rda qolgan bir vaqtda Moskva O'zbek respublikasini ajratib qo'yib nohaqlik qilgan. „O'zbek ishi“ natijasi respublikaning ko'pchilik aholisini milliy harakatga undadi. Bu ayniqsa qayta qurish davrining so'nggi yillari kuchaydi [Shamsutdinov R. Karimov Sh. 452-453].

M. Gorbachyovning yordamchisi, KPSS MK bo'lim boshlig'i V.Boldin Sh. Rashidov faoliyati davrini shunday eslaydi.

“Hokimiyat tepasiga Andropov kelishi bilan, Gorbachyov shu zahoti o'ziga erk berib yubordi. O'zining muvaffaqiyatlarini ko'z-ko'z qilishni boshladi. Eslayman, Rashidov paxta topshirishni oshirishi uchun, Gorbachyov qanday qilib O'zbekiston rahbarining qo'llarini qayiltirganini. Rashidov tushuntirishga, ko'ndirishga harakat qilardi: „Bizda yomg'ir bilan qor yog'di, hammasi muzlab qolgan. Agar shu ahvolda ham terib oladigan bo'lsak, buni quritishimiz uchun yarim yil ketadi”. Gorbachyov esa: “Baribir ko'proq topshiringlar” [www.uz.wikipedia.org. internet sayti.].

Sharof Rashidovning ilmiy faoliyatiga ham biroz to'xtalsak, [1945-yili](#) Sharof Rashidovning — „Mening nafratim“ nomli ilk she'riy to'plami nashrdan chiqdi. „G'oliblar“ povestida ([1951](#)) xalqning dehqonchilik yerlari uchun kurashi tasvirlanadi; xuddi shu mavzu „Bo'rondan kuchli“ romanida ([1958](#)) ham rivojlantiriladi. [1964](#) yilda nashr qilingan „Buyuk to'lqin“ romani sovet jangchilarning Ikkinchi Jahon urushida ko'rsatgan qahramonliklari haqida hikoya qiladi. „Kashmir qo'shig'i“ romantik povestida ([1956](#)) hind xalqining ozodlik kurashi ko'rsatiladi. [1950](#)-yili Rashidovning publitsistik maqolalaridan iborat „Tarix kelishuvi“ nomli to'plami, [1967-yili](#) „Do'stlik ramzi“ nomli kitobi nashrdan chiqadi. Rashidovning tanqidiy maqolalari sovet adabiyotining dolzarb jihatlarini o'zida qamrab olgan edi [[O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi](#)].

Sharof Rashidovich Rashidov Respublikaga rahbarlik qilgan yillarda qator bunyodkorlik ishlari bilan birga qishloq xo'jaligi yerlaridan ekstensiv foydalanish oqibatida ekologik vaziyatning buzilishi, paxta yakkahokimligining qaror topishi kabi noxush holatlar ham yuz berdi. Rashidov vafotidan so'ng Markaz tomonidan totalitar tuzumning barcha kirdikorlari unga yuklanib, 80-yillar qatag'onida nohaq qoralandi [<https://www.uzavtoyul.uz/uz/post> internet sayti].

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, ushbu murakkab shaxs o'z faoliyati davrida oqilona boshqaruvni amalga oshirgan bo'lsada, o'limidan so'ng, uning nomi qora

bitiklarga bitildi. “Sharof Rashidovchilik” degan uydurma soʻzlar “markaz” tomonidan toʻqib chiqarildi. Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, Rashidovning nomi oqlandi. Birinchi prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan Rashidov tavalludining 75 yilligi nishonlandi. Rashidov Toshkentdagi Xalqlar Doʻstligi saroyi meʼmoriy majmuasi uchun qurilish gʻoyasining muallifi va ijodiy rahbari sifatida vafotidan soʻng Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Davlat mukofoti bilan taqdirlangan (1994).

[2016-yil 23-dekabrda Oliy Majlis](#) Qonunchilik palatasi qarori bilan [Jizzax viloyatining Jizzax tumaniga „Sharof Rashidov tumani“](#) nomi berildi. [2017-yil 27-mart](#) kuni [Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning](#) „Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini keng nishonlash haqida“gi qarori qabul qilindi. Shu yilning [6-oktabr](#) kuni [Jizzax](#) shahrida Sharof Rashidovning haykali ochildi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Islom Karimov. Xalqimizning otashqalb farzandi. Oʻzbekiston gazetasi. 1992.
2. Shavkat Mirziyoyevning Sharof Rashidov haykali ochilishi marosimidagi nutqidan <https://www.uzavtoyul.uz/uz/post> internet sayti
3. Q. Usmonov., M. Sodiqov Oʻzbekiston tarixi (1917-1991). Toshkent. 2010.
4. Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi 3-kitob. Toshkent. 2010.
5. [Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi](#). Birinchi jild. Toshkent. 2000.
6. www.uz.wikipedia.org. internet sayti.